

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI**

**TABIY GAZ VA ELEKTR ENERGIYASINI SOTISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR
TO‘G‘RISIDA**

Tabiiy gaz va elektr energiyasini aholi va tadbirkorlik subyektlarga sotish mexanizmini yanada takomillashtirish, ularning iste‘moli uchun to‘lovlarning o‘z vaqtida va to‘liq undirilishini ta‘minlash maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining (keyingi o‘rinlarda — Byuro) quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

a) 2020-yil 1-iyuldan quyidagilarni nazarda tutuvchi mexanizmni joriy etish:

“Hududgazta‘minot” AJga va magistral gaz uzatish tizimiga ulangan iste‘molchilarga tabiiy gazni to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar asosida sotish funksiyasini “O‘ztransgaz” AJga yuklash;

“Hududgazta‘minot” AJ tomonidan keyinchalik gaz taqsimlash tarmoqlariga ulangan respublika ichki iste‘molchilariga, shu jumladan, aholiga sotish maqsadida tabiiy gazni ushbu tabiiy gaz magistral gaz uzatish tizimi orqali yetkazib berilgan taqdirda — “O‘ztransgaz” AJdan, shuningdek, to‘g‘ridan to‘g‘ri gaz taqsimlash tarmoqlariga yetkazib berilgan taqdirda — tabiiy gaz ishlab chiqaruvchilardan oldi-sotdi shartnomalariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Idoralararo tarif komissiyasi tomonidan tasdiqlanadigan tariflar bo‘yicha sotib olinishi;

b) 2021-yil 31-dekabrga qadar “O‘ztransgaz” AJ magistral gaz uzatish tizimiga ulangan tabiiy gaz iste‘molchilarini (yirik strategik korxonalar bundan mustasno) “Hududgazta‘minot” AJning gaz taqsimlash tarmoqlariga, tabiiy gazni yetkazib berish shartnomalarini qayta tuzgan holda bosqichma-bosqich o‘tkazish;

v) 2020-yil 1-avgustdan Byuroning:

elektr energiyasi va tabiiy gaz iste‘molini nazorat qilish va hisobga olishning zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlari, shuningdek, muqobil energiya manbalarining joriy etilishini tashkil etish va ushbu jarayonlar ustidan monitoring o‘tkazishga doir vazifa va vakolatlarini — O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligiga;

elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun to‘lovlarning o‘z vaqtida va to‘liq undirilishini ta‘minlash, iste‘molchilarning qarzdorligini kamaytirish, shuningdek, elektr energiyasi va tabiiy gaz sotuvi va iste‘molini hisobga olish bo‘yicha vazifa va vakolatlarini — tegishli “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning hududiy korxonalariga va “Hududgazta‘minot” AJning hududiy gaz ta‘minoti tashkilotlariga;

elektr va gaz taqsimlash tarmoqlariga noqonuniy ulanish, talon-toroj holatlarini aniqlash, bartaraf etish va oldini olishga doir vazifa va vakolatlarini — tegishli “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning hududiy korxonalariga va “Hududgazta‘minot” AJning hududiy gaz ta‘minoti tashkilotlariga hamda o‘z vakolatlari doirasida tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga;

elektr energiyasi va tabiiy gazni ehtiyot qilish va ulardan oqilona foydalanish yuzasidan iste‘molchilarning huquqiy madaniyati va mas‘uliyatini oshirish choralari ko‘rishga doir vazifa va vakolatlarini — tegishli O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligiga, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJga va “Hududgazta‘minot” AJga;

energiya resurslari uchun hisob-kitob qilinishini ta‘minlash tizimini kompleks tahlil qilish, tizimli muammolarni aniqlash, takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishga doir vazifa va vakolatlarini — O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligiga o‘tkazish.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi “Hududgazta‘minot” AJning hududiy gaz ta‘minoti tashkilotlarini keyinchalik ular negizida filiallar tashkil etgan holda belgilangan tartibda “Hududgazta‘minot” AJga qo‘shilishini ta‘minlasin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi “O‘ztransgaz” AJ va “Hududgazta‘minot” AJ bilan birgalikda:

ichki bozorga yetkazilgan tabiiy gaz uchun 2020-yil 1-iyul holatiga mavjud bo‘lgan debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarini (magistral gaz uzatish tizimiga ulangan iste‘molchilar bundan mustasno) “O‘ztransgaz” AJdan “Hududgazta‘minot” AJga qayta rasmiylashtirilishini;

tabiiy gazni nazorat qilish va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimi 2021-yil oxiriga qadar barcha turdagi iste‘molchilar uchun to‘liq joriy etilishini;

“O‘ztransgaz” AJ magistral gaz uzatish tizimiga ulangan iste‘molchilarni (yirik strategik korxonalar bundan mustasno) bir oy muddatda “Hududgazta‘minot” AJning gaz taqsimlash tarmoqlariga o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini, mazkur jarayonni tabiiy gazni yetkazib berish shartnomalarini qayta tuzishni hisobga olib, 2021-yil 31-dekabrqa qadar yakunlashni nazarda tutgan holda tasdiqlanishini;

“O‘ztransgaz” AJning magistral gaz uzatish tizimiga ulangan iste‘molchilarning “Hududgazta‘minot” AJning gaz taqsimlash tarmoqlariga o‘tkazilishiga qarab, ushbu iste‘molchilar bilan tabiiy gaz yetkazib berish shartnomalarini “Hududgazta‘minot” AJ tomonidan bosqichma-bosqich qayta tuzilishini ta‘minlasin.

Belgilansinki, “Hududgazta‘minot” AJ “O‘ztransgaz” AJ va ilgari “O‘ztransgaz” AJ tarkibiga kirgan uning hududiy gaz ta‘minoti filiallari bilan iste‘molchilar (magistral gaz uzatish tizimiga ulangan iste‘molchilar bundan mustasno) o‘rtasida tuzilgan tabiiy gaz yetkazib berish bo‘yicha shartnoma va majburiyatlar yuzasidan huquqiy voris hisoblanadi.

4. Bosh prokuratura Moliya vazirligi, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi bilan birgalikda bir oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyahasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritilsin:

elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni aniqlash va rasmiylashtirish mexanizmi;

ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun majburiy to‘lovlarni undirish mexanizmi;

energiya ta‘minoti, qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish sohasida to‘lov intizomini ta‘minlash bo‘yicha Byuro organlarining vazifalari tugatilishi munosabati bilan uning faoliyatini takomillashtirish va shtat birliklari sonini qisqartirish.

Belgilansinki, elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun to‘lovlarning o‘z vaqtida va to‘liq undirilishi bo‘yicha vazifalar o‘tkazilishi munosabati bilan “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning va “Hududgazta‘minot” AJning tuzilmalari faoliyatiga qo‘shimcha jalb qilinadigan xodimlar, birinchi navbatda, mazkur bandning **to‘rtinchi xatboshisiga** muvofiq qisqartirilayotgan Byuro xodimlari hisobidan to‘ldiriladi.

5. Belgilansinki:

2020-yil 1-iyuldan boshlab yangi tabiiy gaz iste‘molchilari (yirik strategik korxonalar bundan mustasno) faqat gaz taqsimlash tarmoqlariga ulanadi;

neft, gaz hamda gaz kondensatini qazib chiqarish, qayta ishlash va sotish (shu jumladan, oxirgi iste‘molchigacha sotish) bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs — litsenziatlar tomonidan umumiy foydalanishdagi gaz tarmoqlariga o‘zboshimchalik bilan ulanish yoki ulardan foydalanish qoidalarini boshqacha tarzda buzish, tabiiy gazni hisobga olish asboblariga, shu jumladan, ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish, shuningdek, hisobga olish asboblarining ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish maqsadida ularga litsenziat tomonidan ruxsatsiz aralashish litsenziya bitimi talablari va shartlarini bir marotaba qo‘pol ravishda buzish hisoblanadi hamda litsenziyalovchi organning qaroriga muvofiq litsenziya amal qilishining tugatilishiga olib keladi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga **1-ilovaga** muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlari **2-ilovaga** muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi Byuro hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

9. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2020-yil 18-iyun,
PF-6010-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-son Farmoniga
1-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 28-apreldagi “Neft va gaz konlarini razvedka qilish hamda ularni qazib chiqarishga bevosita xorijiy sarmoyalarni jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-2598-son Farmonining 9-bandidagi ““O‘zbekneftgaz” Aksiyadorlik jamiyati” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5484-son Farmonining 1-bandida:

uchinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

to‘rtinchi xatboshidagi “Vazirlar Mahkamasining Geologiya, yoqilg‘i-energetika kompleksi, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya sanoati masalalari kompleksi tarkibiga” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tuzilmasiga” so‘zlari bilan almashtirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 8-avgustdagi ““O‘ztransgaz” aksionerlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-438-son qarorining 2-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2. “O‘ztransgaz” AJning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

tabiiy gazni keyinchalik yagona operator sifatida yetkazib berish, jumladan, eksport va import qilish uchun gaz qazib oluvchi va qayta ishlovchi tashkilotlar, shu jumladan, mahsulotni taqsimlash to‘g‘risidagi bitimlar asosida faoliyat yurituvchi qo‘shma korxonalar va xorijiy kompaniyalardan xarid qilish;

tabiiy gazni oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha “Hududgazta‘minot” AJ va magistral gaz uzatish tizimiga ulangan iste‘molchilarga sotish;

magistral gaz quvurlari, kompressor stansiyalari, yer osti gaz omborlari va ularning uskunalaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalarning me‘yoriy talablariga amal qilgan holda magistral gaz quvurlariga ulangan elektr ishlab chiqaruvchi elektr stansiyalarini belgilangan tartibda tabiiy gaz bilan uzluksiz ta‘minlash;

magistral gaz quvurlari tizimida ularni modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlashni hisobga olib hamda tabiiy gazni uzatish texnologiyasi va gidravlik balansiga rioya etgan holda yagona texnik siyosatni olib borish;

magistral gaz quvurlari tizimida tabiiy gazdan oqilona foydalanishni ta‘minlash;

magistral gaz quvurlari tizimida zamonaviy hisoblash priborlari va usullarini joriy etgan holda gazning qat‘iy hisobga olinishini ta‘minlash, tabiiy gazning isrof qilinishi va asossiz ishlatilishini kamaytirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

eksportga tabiiy gaz yetkazib berish hajmini oshirish va uni uzatish bo‘yicha ko‘rsatilayotgan xizmatlarni kengaytirish”.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 5-noyabrdagi “Suv xo‘jaligi tashkilotlari iste‘mol qiladigan elektr energiya uchun to‘lovlar mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-723-son qarorida:

- a) 1-bandning oltinchi xatboshisidagi ““O‘zbekenergo” DAKning” so‘zlari ““Hududiy elektr tarmoqlari” AJning” so‘zlari bilan almashtirilsin;
- b) ilovaning rus tilidagi matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“SXEMA

osushtvleniya platejey za elektroenergiyu, potrebyayemuyu vodoxozyaystvennimi organizatsiyami Ministerstva vodnogo xozyaystva, cherez Kaznacheystvo Ministerstva finansov Respubliki Uzbekistan i ego territorialnie podrazdeleniya



- 1) predostavleniye zaregistrovannix v ustanovlennom poryadke Ministerstvom finansov smet rasxodov v podrazdeleniya Kaznacheystva Ministerstva finansov;
 - 2) zaklyucheniye dogovorov na postavku elektroenergii mejdu vodoxozyaystvennimi organizatsiyami i podrazdeleniyami AO “Regionalnie elektricheskiye seti” v predelax utverjdennix smet rasxodov;
 - 3) predostavleniye vodoxozyaystvennimi organizatsiyami dogovorov na registratsiyu v sootvetstvuyushiy kaznacheyskiye podrazdeleniya;
 - 4) predostavleniye podrazdeleniyami AO “Regionalnie elektricheskiye seti” vodoxozyaystvennim organizatsiyam schetov-faktur ob obyemax postavlennoy elektroenergii i summax, podlejashix k oplate;
 - 5) predostavleniye schetov-faktur vodoxozyaystvennimi organizatsiyami v sootvetstvuyushiy territorialnie kaznacheyskiye podrazdeleniya;
 - 6) proverka territorialnimi kaznacheyskimi podrazdeleniyami schetov-faktur i vvod ix dannix dlya oplati za elektroenergiyu v Edinuyu bazu dannix Kaznacheystva Ministerstva finansov;
 - 7) oplata Kaznacheystvom Ministerstva finansov za elektroenergiyu na spetsialnie bankovskiy scheta podrazdeleniy AO “Regionalnie elektricheskiye seti”;
 - 8) predostavleniye territorialnimi kaznacheyskimi podrazdeleniyami vodoxozyaystvennim organizatsiyam vipisok i kopiy platejnix porucheniy ob oplate za potreblennuyu elektroenergiyu”.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 14-fevraldagi “Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi “Elektr energiyasi iste’molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy qilish. O‘zbekiston Respublikasining Buxoro, Jizzax va Samarqand viloyatlari 0,4 kVli

iste'molchilarining elektr energiyasi iste'molini hisobga olish tizimi" loyihasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1705-son qarori rus tilidagi matni 2-bandining uchinchi va to'rtinchi xatboshilaridagi "GAK "Uzbekenergo"" so'zlari "AO "Regionalnie elektricheskiye seti"" so'zlari bilan almashtirilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 2-avgustdagi "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi "Elektr energiyasi iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy qilish. O'zbekiston Respublikasining Buxoro, Jizzax va Samarqand viloyatlari 0,4 kVli iste'molchilarining elektr energiyasi iste'molini hisobga olish tizimi" loyihasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1795-son qarori rus tilidagi matni 5-bandining uchinchi xatboshisi, 7 va 8-bandlaridagi "GAK "Uzbekenergo"" so'zlari "AO "Regionalnie elektricheskiye seti"" so'zlari bilan almashtirilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 1-maydagi "To'raqo'rg'on issiqlik elektr stansiyasini qurish" investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2342-son qarori rus tilidagi matni 3-bandining to'rtinchi xatboshisi, 4-bandining ikkinchi va uchinchi xatboshilari, 5, 9, 10 va 11-bandlaridagi "GAK "Uzbekenergo"" so'zlari "AO "Teplovie elektricheskiye stansii"" so'zlari bilan almashtirilsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 17-oktabrdagi PQ-2635-son qarori bilan tasdiqlangan 100 foiz oddiy aksiyalari davlatga tegishli bo'lgan strategik aksiyadorlik jamiyatlari ro'yxatining rus tilidagi [matnida](#):

a) 1 va 2-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"1. AO "Uzbekneftgaz"

2. AO "Teplovie elektricheskiye stansii"";

b) quyidagi mazmundagi 1¹, 1², 2¹ va 2²-bandlar bilan to'ldirilsin:

"1¹. AO "Uztransgaz"

1². AO "Xududgazta'minot"

2¹. AO "Natsionalnie elektricheskiye seti Uzbekistana"

2². AO "Regionalnie elektricheskiye seti"".

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-maydagi "2017 — 2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PQ-3012-son [qarorida](#):

a) 5-band o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

b) 7-bandning [oltinchi](#) va [yettinchi xatboshilari](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Bunda qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olmagan holda hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonunida nazarda tutilgan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan ozod qilish bo'yicha imtiyoz va preferensiyalarning amal qilish davrida amalga oshiriladi.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonalari "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "O'zbekiston Milliy elektr tarmoqlari" AJ va mahalliy ijro hokimiyati organlari bilan kelishgan holda qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida elektr energiya ishlab chiqaruvchi iste'molchilardan elektr energiya sotib olish bo'yicha shartnomalar tuzish huquqiga egadir".

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-noyabrdagi "Energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3379-son qarori 2-bandining "[b](#)" [kichik bandi](#) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-noyabrdagi "Elektr energiyasi va tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini jadal joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3384-son [qarorida](#):

a) 2-bandda:

[birinchi xatboshi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"2. Ishchi komissiyaning Loyiha doirasida dastlab 2 million dona elektr energiyasini hisobga olish uskunalari, shuningdek, dasturiy ta'minot, qo'shimcha asbob-uskuna, boshqa zarur texnik vositalarni (keyingi o'rinlarda hisobga olish uskunalari va qo'shimcha vositalar deb yuritiladi)

“Toshelectroapparat” MChJ XKdan istisno tariqasida tender savdolarini o‘tkazmasdan xarid qilish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin”;

ikkinchi xatboshidagi ““O‘zbekenergo” AJ va “O‘ztransgaz” AJ” so‘zlari ““Hududiy elektr tarmoqlari” AJ” co‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 3-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Ishchi komissiya (J.A. Qo‘chqorov) “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ bilan birgalikda bir oy muddatda Loyiha bo‘yicha “Toshelectroapparat” MChJ XK bilan yakuniy muzokaralar o‘tkazilishi va kontraktlar (keyingi o‘rinlarda kontraktlar deb yuritiladi) tuzilishini tashkil etsin”;

v) 5-bandning uchinchi xatboshisidagi ““O‘zbekenergo” AJ va “O‘ztransgaz” AJ” so‘zlari ““Hududiy elektr tarmoqlari” AJ” so‘zlari bilan almashtirilsin;

g) 6-bandda:

ikkinchi xatboshi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

to‘rtinchi, beshinchi va oltinchi xatboshilardagi ““O‘zbekenergo” AJ va “O‘ztransgaz” AJ” so‘zlari ““Hududiy elektr tarmoqlari” AJ” so‘zlari bilan almashtirilsin;

d) 7 va 8-bandlardagi ““O‘zbekenergo” AJ va “O‘ztransgaz” AJ” so‘zlari ““Hududiy elektr tarmoqlari” AJ” so‘zlari bilan almashtirilsin;

e) 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Byuro bilan birgalikda bir oy muddatda elektr uzatish liniyalari va gaz quvurlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha davlat dasturlari amalga oshirilishini, elektr ta‘minoti infratuzilmasining amaldagi holatini, shaharlar va viloyatlar markazlarining ustuvorligini inobatga olgan holda hisobga olish uskunalari va qo‘shimcha vositalarni o‘rnatish jadvalini tasdiqlasin”;

yo) 12-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ bilan birgalikda yaratiladigan Kommunal xizmatlar yagona billing tizimining Loyiha doirasida o‘rnatiladigan dasturiy mahsulotlar bilan mosligini ta‘minlasin”;

j) 14-banddagi ““O‘zbekenergo” AJ, “O‘ztransgaz” AJ” so‘zlari ““Hududiy elektr tarmoqlari” AJ” so‘zlari bilan almashtirilsin;

z) 16-banddagi ““O‘zbekenergo” AJ va “O‘ztransgaz” AJ” so‘zlari ““Hududiy elektr tarmoqlari” AJ” so‘zlari bilan almashtirilsin;

i) 17-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“17. Loyihaning to‘liq va o‘z muddatida amalga oshirilishi, shu jumladan, tasdiqlanadigan loyiha parametrlariga erishish yuzasidan shaxsiy javobgarlik O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri A.S. Sultanov va “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ rahbari U.M. Mustafoyev zimmasiga yuklansin”.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-noyabrdagi “Yoqilg‘i-energetika resurslari hamda boshqa yuqori likvidli mahsulotlar bilan ta‘minlash borasida raqobat muhitini takomillashtirish, suiiste‘molchiliklar va talon-torojliklar sharoitini tugatish, to‘lov intizomini mustahkamlash, debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3386-son qarori 5-bandning uchinchi xatboshisidagi ““O‘zneftmahsulot” AJning” so‘zlari ““O‘zbekneftgaz” AJning” so‘zlari bilan almashtirilsin.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3870-son qarorida:

a) nomlanishi, 1-bandi, 4-bandning ikkinchi xatboshisi, 6-bandning birinchi xatboshisi va 8-banddagi “Vazirlar Mahkamasi huzuridagi” so‘zlari “Energetika vazirligi huzuridagi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 12-band va 2-ilova o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

v) 1-ilovaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligining
TUZILMASI**



Umumiy shtatlar soni — 48 nafar.

* Xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar soni qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan normativlarga muvofiq belgilanadi.”.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-iyuldagi “Toshkent shahrida “MMFI” milliy tadqiqot yadro universiteti” federal davlat avtonom oliy ta’lim muassasasining filialini tashkil etish va uning faoliyatini tashkillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3875-son **qarorida**:

a) **8-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“8. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan birgalikda 2019-yil va keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish davlat dasturlarini shakllantirishda ularga “MMFI” MTYAU filialining bino va inshootlarini tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq rekonstruksiya qilish, kapital ta’irlash hamda jihozlash yuzasidan loyihalarning belgilangan tartibda kiritilishini ta’minlasin”;

b) **9-bandda**:

“a” **kichik bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“a) “MMFI” MTYAU filialiga qabul kvotasi manfaatdor vazirlik va idoralarning kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji hisobga olingan holda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi, bosh muassasa bilan kelishilgan holda tayyorlangan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining asoslantirilgan takliflari bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari bilan birgalikda malakali kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyojni har yili tahlil qilib boradi hamda tahlil natijasiga ko‘ra “MMFI” MTYAU filialiga kelgusi o‘quv yillarida ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha talabalarni qabul qilish soni yuzasidan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritadi”;

“b” **kichik bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“b) Vasiylik kengashining qaroriga muvofiq “MMFI” MTYAU filiali xodimlariga ularning yuqori malakasi, ixtisoslashtirilgan kompyuter komplekslari bilan ishlash ko‘nikmalari uchun “MMFI” MTYAU filiali va O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom

energetikasini rivojlantirish agentligining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan shaxsiy ustama belgilanishi mumkin”;

“g” kichik bandning **ikkinchi xatboshisidagi** “Fanlar akademiyasiga” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligiga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 11-bandning **birinchi xatboshisidagi** ““O‘zbekneftgaz” AJ” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi” so‘zlari bilan almashtirilsin”;

g) **2-ilovada:**

“O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — “O‘zbekneftgaz” AJ boshqaruvi raisi” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi raisi” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining investitsiyalar va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“S.R. Xolmuradov” so‘zlari “Sh.A. Vafayev” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi bosh direktori” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi energetika vazirining birinchi o‘rinbosari — O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi bosh direktori” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“M.M. Mirzayev” so‘zlari “I.I. Norkulov” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“iqtisodiyot vazirining” so‘zlari “iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

d) **3-ilovada:**

“O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — “O‘zbekneftgaz” AJ boshqaruvi raisi” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi bosh direktori” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi energetika vazirining birinchi o‘rinbosari — O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi bosh direktori” so‘zlari bilan almashtirilsin”.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-oktabrdagi “Elektr energetikasi tarmog‘ini jadal rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3981-son **qarorida:**

a) **1-bandda:**

uchinchi xatboshidagi ““O‘zbekenergo” AJning” so‘zlari ““Hududiy elektr tarmoqlari” AJning” so‘zlari bilan almashtirilsin;

yettinchi — o‘n birinchi xatboshilar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Quyidagilarga:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripovga — “Yo‘l xaritasi”da belgilangan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirilishini qat‘iy nazoratga olish;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining investitsiyalar va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari S.U. Umurzakovga — xalqaro moliya institutlari va tashkilotlardan jalb qilinayotgan mablag‘larning o‘z vaqtida o‘zlashtirilishini ta‘minlash, shuningdek, salohiyatli investorlarni izlash va investorlarga, shu jumladan, ishonchli boshqaruvga beriladigan obyektlarni aniqlagan holda elektr energetikasi tarmog‘iga to‘g‘ridan to‘g‘ri chet el investitsiyalarini jalb qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari — O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vaziri J.A. Qo‘chqorovga — elektr energetikasi tarmog‘ida loyihalarni davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirish mexanizmlarining sifatli ishlab chiqilishini ta‘minlash;

“Issiqlik elektr stansiyalari”, “O‘zbekiston Milliy elektr tarmoqlari” va “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatlar boshqaruvining raislari — loyiha hujjatlarini o‘z vaqtida ishlab

chiqish, kelishish va tasdiqlash, mazkur qarorda belgilangan obyektlarni qurish va foydalanishga topshirishni ta'minlash uchun shaxsiy javobgarlik yuklansin”;

b) 3-bandning to'rtinchi — o'ninchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“b) quyidagilar:

Osiyo taraqqiyot banki mablag'lari hisobiga ASKUE 1-faza loyihasini amalga oshirish doirasida iqtisod qilingan mablag'lar hisobidan EEHO va NQAT ma'lumotlarini qayta ishlash respublika yagona markazini tashkil etish bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tender natijalariga ko'ra aniqlangan pudratchi — kompaniya bilan;

Respublikaning barcha hududlarida EEHO va NQATni joriy etish uchun zarur bo'lgan zamonaviy hisoblash qurilmalari va qo'shimcha asbob-uskunalarni sotib olish uchun xalqaro tanlov savdolarini o'tkazish yuzasidan tender hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha “CESI S.P.A / AF Mercados Energy Markets International S.A / Sharifa.com” (Italiya/Ispaniya/O'zbekiston) konsalting kompaniyalarining konsorsiumi bilan qo'shimcha bitimlar tuzish.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Sh.A. Vafayev)ga quyidagilarni muvofiqlashtirish uchun javobgarlik yuklansin:

xarid qilish jarayonlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ishtirok etishini, mamlakat hududida EEHO va NQAT va hisoblash qurilmalariga xizmat ko'rsatish servis markazlarini yaratishni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining boshqa manfaatlarini hisobga olgan holda EEHO va NQATni joriy qilish uchun zamonaviy hisoblash qurilmalari va qo'shimcha asbob-uskunalarni sotib olish uchun tender hujjatlarini ishlab chiqish;

Osiyo taraqqiyot bankining qarz mablag'lari hisobiga 2021-yil 1-dekabr qadar respublikaning barcha hududlarida EEHO va NQATni joriy etishni yakunlash bo'yicha zamonaviy hisoblash qurilmalari va qo'shimcha asbob-uskunalarni sotib olish yuzasidan xalqaro tender savdolarining o'tkazilishini jadallashtirish.

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ mahalliy ishlab chiqaruvchilardan hisoblash qurilmalari va qo'shimcha asbob-uskunalarni sotib olish jarayonida, ularning texnik parametrlarining xalqaro tender savdolarini o'tkazish uchun tayyorlangan tender hujjatlari talablariga muvofiqligini ta'minlasin”;

v) 4-banddagi ““O'zbekenergo”” so'zlari ““Hududiy elektr tarmoqlari”” so'zlari bilan almashtirilsin;

g) 8-banddagi “Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi “O'zbekenergo” AJ” so'zlari “Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Energetika vazirligi” so'zlari bilan almashtirilsin;

d) 1-ilovada:

1) “Loyiha qiymati va moliyalashtirish manbai” ustunida:

1 — 3, 5, 7-pozitsiyalardagi ““O'zbekenergo” AJ” so'zlari ““Issiqlik elektr stansiyalari” AJ” so'zlari bilan almashtirilsin;

11, 12, 19-pozitsiyalardagi ““O'zbekenergo” AJ” so'zlari ““O'zbekiston Milliy elektr tarmoqlari” AJ” so'zlari bilan almashtirilsin;

13, 15, 16-pozitsiyalardagi ““O'zbekenergo” AJ” so'zlari ““Hududiy elektr tarmoqlari” AJ” so'zlari bilan almashtirilsin;

2) “Mas'ul ijrochilar” ustunida:

1 — 7, 9, 10 va 14-pozitsiyalardagi ““O'zbekenergo” AJ (Mustafoyev)” va “Davlat investitsiya qo'mitasi” so'zlari tegishincha ““Issiqlik elektr stansiyalari” AJ (Mubarakshin)” va “Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi” so'zlari bilan almashtirilsin;

8-pozitsiyada:

““O'zbekenergo” AJ (Mustafoyev)” so'zlari ““Issiqlik elektr stansiyalari” AJ (Mubarakshin)” so'zlari bilan almashtirilsin;

““MEK” AJ (Muratov)” so'zlari chiqarib tashlansin;

11 va 12-pozitsiyalardagi “Davlat investitsiya qo'mitasi” va ““O'zbekenergo” AJ (Mustafoyev)” so'zlari tegishincha “Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi” va ““O'zbekiston Milliy elektr tarmoqlari” AJ (Isakulov)” so'zlari bilan almashtirilsin;

13, 14 va 16-pozitsiyalardagi “Davlat investitsiya qo‘mitasi” va ““O‘zbekenergo” AJ” so‘zlari tegishincha “Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi” va ““Hududiy elektr tarmoqlari” AJ” so‘zlari bilan almashtirilsin;

15, 17 va 18-pozitsiyalardagi ““O‘zbekenergo” AJ” so‘zlari ““Hududiy elektr tarmoqlari” AJ” so‘zlari bilan almashtirilsin;

19-pozitsiyadagi ““O‘zbekenergo” AJ (Mustafoyev)” so‘zlari ““O‘zbekiston Milliy elektr tarmoqlari” AJ (Isakulov)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

e) 3-ilovaning **matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Elektr energetikasi tarmog‘ini isloh qilish bo‘yicha Komissiya

TARKIBI

1. A.N. Aripov — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, *Komissiya raisi*
2. J.A.Qo‘chqorov — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari — O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vaziri, *Komissiya raisi o‘rinbosari*
3. A.S. Sultanov — O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri, *Komissiya raisi o‘rinbosari*
4. B.M. Mavlonov — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Huquqiy ekspertiza va kompleks tahlil qilish departamenti rahbari
5. G.K. Saidova — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining o‘rinbosari
6. Sh.A. Vafayev — O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vaziri o‘rinbosari — O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi ijrochi direktori
7. Sh.Y. Ismailov — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining sho‘ba mudiri
8. O.E. Nasritdinxodjayev — O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining birinchi o‘rinbosari
9. B.K. Abdinazarov — O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirining o‘rinbosari
10. N.Sh. Sharipov — O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi raisi
11. Sh.X. Xodjayev — O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri o‘rinbosari
12. U.U. Egamberdiyev — O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi “O‘zenergoinspeksiya” boshlig‘i
13. M.R. Abdullayev — “O‘zbekneftgaz” AJ boshqaruvi raisi
14. R.G. Mubarakshin — “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ boshqaruvi raisi
15. D.A. Isakulov — “O‘zbekiston Milliy elektr tarmoqlari” AJ boshqaruvi raisi
16. U.M. Mustafoyev — “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ boshqaruvi raisi
17. A.A. Sanginov — “O‘zbekgidroenergo” AJ boshqaruvi raisi
18. B.A. Xadjixanov — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi sho‘ba mudiri, *Komissiya mas‘ul kotibi*

Izoh. Komissiya a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi”.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda “Noruda foydali qazilmalarni o‘z ichiga olgan yer qa‘ri uchastkalaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4078-son qarori 2-bandining **uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2020-yil 1-yanvardan barcha noruda foydali qazilmalarni o‘z ichiga olgan yer qa‘ri uchastkalaridan foydalanish (daryo o‘zanlarini tozalash jarayonida qum-shag‘al materiallarini qazib olish bundan mustasno) huquqi uchun litsenziyalar O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va

mineral resurslar qo‘mitasi tomonidan “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasidagi elektron auksion yakunlari asosida 20 kundan oshmagan muddatda beriladi”.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-apreldagi “Shisha tola, shisha tolali buyumlar, kompozit materiallar, energiya tejamkor isitish asbob-uskunolari va energiya tejashning zamonaviy tizimlarini ishlab chiqarishni tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4277-son qarori **10-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi bilan birgalikda loyiha-qidiruv va qurilish-montaj ishlarini bajarishda bino va inshootlarning energiya samaradorligi sinflarini (A, B, V sinflari va boshqalar) belgilash, energiya tejamkor isitish asbob-uskunolari, energiya tejaydigan texnologiyalar va uskunalar, shuningdek, energiya tejashning boshqa zamonaviy tizimlaridan foydalanish bo‘yicha talablarni normativ hujjatlarga kiritish choralarini ko‘rsin”.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi aholi punktlarida telekommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4329-son qarori **11-bandidagi** ““O‘zbekenergo” AJ” degan so‘zlar ““Hududiy elektr tarmoqlari” AJ” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi “Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta‘minlash, neft-gaz tarmog‘ini moliyaviy sog‘lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4388-son qarorining **4-bandida**:

“a” kichik bandining **uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha “Hududgazta‘minot” AJ va magistral gaz uzatish tizimiga ulangan iste‘molchilarga tabiiy gazni sotish”;

“b” kichik bandining **uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirdagi uchinchi va to‘rtinchi xatboshilar bilan almashtirilsin:

“suyultirilgan gazni xarid qilish, yetkazib berish, saqlash hamda aholi va ijtimoiy soha obyektlariga sotish;

tabiiy gazni keyinchalik gaz taqsimlash tarmog‘iga ulangan respublika ichki iste‘molchilariga, shu jumladan, aholiga sotish maqsadida magistral gaz uzatish tizimi orqali yetkazib berilganda — “O‘ztransgaz” AJdan, shuningdek, to‘g‘ridan to‘g‘ri gaz taqsimlash tarmog‘iga yetkazib berilganda — tabiiy gaz ishlab chiqaruvchilaridan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Idoralararo tarif komissiyasi tomonidan tasdiqlanadigan tariflar bo‘yicha oldi-sotdi shartnomasi asosida xarid qilish funksiyalari yuklansin”.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabrdagi “Neft va gaz geologiya-qidiruv ishlarini tashkil etish va olib borish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4522-son qarori 12-bandining **uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“strategik foydali qazilma turlariga ega yer qa‘ri uchastkalaridan foydalanish huquqining boshlang‘ich bahosi geologik tadqiqot uchun — imzo bonusi stavkasi miqdorida, qazib chiqarish uchun — tijorat topilma bonusi stavkasi miqdorida qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda belgilanadi”.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-dekabrdagi PQ-4555-son qarori bilan tasdiqlangan Foyda solig‘i to‘liqligicha O‘zbekiston Respublikasi respublika budjetiga yo‘naltiriladigan yirik soliq to‘lovchilar **ro‘yxati** quyidagi mazmundagi 86-qator bilan to‘ldirilsin:

“ 86. “Hududgazta‘minot” AJ	306605769	”.
-----------------------------	-----------	----

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-son **Farmoniga**
2-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e‘tirof etilayotgan ayrim hujjatlari

RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 23-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PF-4256-son Farmoniga ilovaning **3-bandi**.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 27-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi PF-4374-son Farmoniga ilovaning [5-bandi](#).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 3-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi PF-4473-son Farmoniga 1-ilovaning [10-bandi](#).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi PF-5114-son Farmoniga ilovaning [2-bandi](#).

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi PF-5207-son Farmoniga ilovaning [6-bandi](#).

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi PF-5620-son Farmoniga 1-ilovaning [8-bandi](#).

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrdaagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi PF-5894-son Farmoniga ilovaning [34-bandi](#).

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 8-avgustdagi ““O‘ztransgaz” aksionerlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-438-son qarori [5-bandi](#) hamda [5](#) va [6-ilovalari](#).

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 21-avgustdagi “O‘zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-446-son qarorining [3-bandi](#).

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 7-iyundagi “Yer qa‘ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun litsenziyalar berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-649-son [qarori](#).

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 7-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi PQ-1850-son [qarori](#).

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 17-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PQ-2213-son qaroriga ilovaning [2-bandi](#).

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 26-dekabrdaagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ba‘zi qarorlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PQ-2280-son qaroriga ilovaning [2-bandi](#).

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 5-maydagi “2015 — 2019-yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sig‘imini qisqartirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari Dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2343-son [qarori](#).

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 9-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o‘zgartish hamda qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PQ-2655-son qaroriga ilovaning [1-bandi](#).

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-avgustdagi “Zamonaviy energiya samarador va energiya tejaydigan texnologiyalarni yanada joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3238-son [qarori](#).

(Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-son)